

**BOSIM OSTIDA ISHLOVCHI VOSITALARDAN FOYDALANISHDA
XAVFSIZLIK TEXNIKASI**

Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi

Fayzullayev Boburjon

Mamadaliyev Diyorbek

Mamadaliyev Diyorbek

Raxmetov Hayitmurod

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalarida havo bosimli asbob-uskunalar keng ishlatilganda, Bosim ostida ishlovchi kompressorlar bilan ishlovchi ishchi maxsus himoya vositalari bilan taminlanganligi, va ishchi hodimlarning xavfsizligi haqida so'z borgan.*

***Kalit so'zlar:** yonuvchi va portlovchi gazlar, inert va yonmaydigan gazlar, zararli gazlar, kompressor, titrashga qarshi qo'lqop*

Ishlab chiqarish korxonalarida siqilgan havo, gaz, shuningdek, havo bosimli asbob-uskunalar keng ishlatiladi. Bunday asbob- uskunalarni ishga tushirishda yoki siqilgan havo hosil qilishda kompressorlardan foydalaniladi.

Kompressorlar tuzilishi va ishlatilish xususiyatiga ko'ra ko'chma va ko'chmas bo'ladi. Bosim ostida ishlovchi kompressorlar bilan ishlovchi ishchi maxsus kiyim-bosh, poyabzal, titrashga qarshi qo'lqop va himoya kaskasiga o'rnatilgan shovqindan asrovchi quloqchin («naushnik») bilan ta'minlangan hamda xavfsizlik texnikasi bo'yicha malakali o'qitilib, yo'riqnomalardan o'tgan bo'lishi lozim.

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan barcha kompressorlarda manometr o'rnatilgan bo'lishi hamda ular

«Standartlash va o'lchov asboblari qo'mitasi» tomonidan haryili tekshirilib turilishi kerak. Kompressor detallarini yog'lashda faqatgina zavod pasportida ko'rsatilgan yog'lash materiallaridan foydalanish talab etiladi. Boshqa yog'lovchi

materiallarni ishlatish taqiqlanadi.

Ish boshlanishidan oldin, kompressorlarning barcha elementlarini yaxshilab ko'zdan kechirish, bunda siqilgan havoni me'yoriy miqdordan ortib ketmasligini ta'minlab turuvchi avtomatik qurilmalar va ortiqcha havoni chiqaruvchi klapanlarning o'z o'rnida bo'lishi hamda ishchi holatda ekanligiga e'tibor berish kerak.

Kompressor ishlayotganda so'riladigan havo tarkibida zaharli, yengil yonuvchi va portlovchi gazlar hamda changlar bo'lmasligi zarur. Kompressor yopiq binolarda ishlatilsa, xonaga havoning ifloslanishini oldini oluvchi moslamalar o'rnatilishi kerak. Agar ish davrida klapanlar, manometr va boshqa ishchi a'zolar yaxshi ishlamayotganligi aniqlansa, kompressor darhol ishdan to'xtatilib tegishli ta'mirlash ishlari o'tkazilishi zarur. Kompressorning tegishli detallarida sinovdan o'tganligi to'g'risida belgi yoki tamg'alari bo'lishi shart, aks holda, bunday kompressorlardan foydalanish taqiqlanadi. Siqilgan va suyultirilgan gazlardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi.

Ishlab chiqarishda ko'pgina texnologik jarayonlarni amalga oshirish maqsadida turli xil gazlardan, jumladan, kislorod, atsetilen, ammiak, propan-butan, is gazi kabilardan keng foydalaniladi. Ular maxsus metall ballonlarda yuqori bosimda saqlanadi. Ballonlarda kislorod – gaz holatida, is gazi, propan-butan aralashmasi va ammiak suyultirilgan holda, atsetilen aralashma holda bo'ladi.

Barcha gazlar xavflilik darajasi va zaharliligi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- a) yonuvchi va portlovchi gazlar;
- b) inert va yonmaydigan gazlar;
- d) yong'inni kuchaytiruvchi gazlar;
- e) zararli gazlar.

Gaz ballonlari gazlarning turiga bog'liq holda belgilangan ranglarga bo'yalishi va ularga gazning tarkibi

ballonni sinalgan vaqti ko'rsatilishi zarur.

Gaz ballonlarini to'ldirish stansiyalaridan qabul qilib olishda, ularning

nuqsonsiz ekanligini tekshirib ko'rish kerak. Agar ballon jumragining rezbasi yeyilgan, chiqishteshiklari yaxshi bekilmagan, ballon devorlari ezilgan va unda yog'dog'lari bo'lsa, bunday ballonlarni olmaslik lozim. Ballondan yonuvchi yoki zaharli gaz chiqib turganligiqayd etilsa, bunday ballon tezda xavfsiz joyga olinib, tegishli tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

Ishlab chiqarishda ballonlarni maxsus aravalarda tashish lozim. Qish vaqtlarida ballonlarning reduktorlari muzlab ochilmay qolsa, masalan, kislorod ballonini qaynoq suvda namlangan toza latta bilan ochish mumkin. Gaz balonlari reduktorini ochiq olov bilan qizdirib ochish ta-qiqlanadi. Reduktorlarda har bir gazning o'ziga mo'ljallan- gan manometrlar bo'lishi va unda gaz nomi yozilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mashrabboyivich, M. S. (2024). **TEXNIK VOSITALARDAN CHIQUYOTGAN SHOVQINNING INSONLARGA BO'LAYOTGAN TA'SIRINI O'RGANISH.** *Строительство и образование*, 3(5), 131-136.
2. Mo'Minjonov, N. N., To'Ychiyev, A. X., Abdualiyev, E. R., & Akbarov, D. S. (2024). **ISHLAB CHIQUYOTGAN KORXONALARIDAN CHIQUYOTGAN ZARARLI MODDALARNI AHOLI TURMUSH TARZIGA TA'SIRI.** *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 445-448.
3. Mo'Minjonov, N. N. (2024). **XAVFSIZ HARAKATNI TASHKIL ETISHDA MEHNAT MUHOFAZASI FANINI O'QITISHNI O'RNI.** *Экономика и социум*, (6-1 (121)), 821-824.
4. Mominjonov, N. N. (2023). **ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANISHI NATIJASIDA INSONLARGA BO'LAYOTGAN TA'SIRI.** *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 226-230.
5. Nozimjon, M., & Abdurakhim, K. (2023). **TO THE QUESTION OF ANALYSIS OF INDUSTRIAL AND ENVIRONMENTAL SAFETY MANAGEMENT SYSTEMS.** *Universum: технические науки*, (2-5 (107)), 20-23.
6. O'R.Yo'ldoshev, O.D.Rahimov, R.T.Xo'jaqulov, O.T.Hasanova "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. "Davr nashriyoti" Toshkent-2013

7. M.Musaev. Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyasi asoslari. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2011 yil.

8.O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi 2-t. Darslik, —Chinor ENKll, Toshkent - 2009.

9. Nemadjon o'g, M. M. N. (2024). O 'ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI RIVOJLANISHI. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 14(2), 302-306.

10. Nemadjon o'g, M. M. N. (2024). FAVQULOTDA VAZIYAT SODIR BO 'LGANDA EVAKUATSIYA YO 'LLARI VA CHIQISH YO 'LKALARIGA QO 'YILADIGAN TALABLAR. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 14(2), 298-301.

11.Nemadjon o'g, M. M. N. (2024). ZARARLI CHANGLARNI INSON SOG 'LIG 'IGA TA'SIRI HAMDA ULARDAN HIMOYALANISH YO 'LLARI. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 14(2), 295-297.